



UDK: 553.411:553.463

Xolmurod XALIYOROV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
E-mail: xaliyorovxolmurod@gmail.com

Odil RAZIKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti professori, g.-m.f.d

Abror ABDULLAYEV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD
Nizomiddin SOATOV,
O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi, PhD

"Mineral resurslar instituti" DM katta ilmiy xodimi, PhD J.Hamroyev taqrizi asosida

SHAUGAZ-KONDIR SOYLARI ORALIG'IDA MIS, MOLIBDEN, OLTIN VA VISMUT ELEMENTLARINING GEOKIMYOVIY OREOLLARI

Annotatsiya

Bugungi kunda jahon geologiya qidiruv ishlari amaliyotida endogen konlarning geologik-genetik xususiyatlarini, shakllanishi, joylashish qonuniyatlarini o'rganish, sanoat hamda xalq xo'jaligining asl, rangli, qora va boshqa metallar xom ashyo bazasiga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash maqsadida ularni qidirish omillari va belgilari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari bajarilmoqda. Ushbu ilmiy ma'lumotlar esa o'z navbatida olingan natijalar asosida yangi konlarni qidirishga ishonchli manba bo'lib xizmat qiladi. **Kalit so'zlar:** Qurama tog' tizmasi, Shaugaz, Kondir, geokimyoviy oreollar, endogen konlar, asl, rangli, qora va boshqa metallar, ma'dan-formatsion turlar, foydali qazilmalar, strukturaviy omillar.

ГЕОХИМИЧЕСКИЕ ОРЕОЛЫ ЭЛЕМЕНТОВ МЕДИ, МОЛИБДЕНА, ЗОЛОТА И ВИСМУТА В МЕЖДУРЕЧЬЕ ШАУГАЗ-КОНДЫР

Анатация

В настоящее время в мировой практике геолого-разведочных работ проводится большая научно-исследовательская работа по изучению геолого-генетических особенностей эндогенных месторождений, закономерностей их формирования, размещения, а также выявление критериев и признаков их разведки, с целью обеспечения потребностей промышленности и народного хозяйства в сырьевой базе благородных, цветных, черных и других металлов. Эти научные данные, в свою очередь, служат надежным источником для поиска новых месторождений на основе полученных результатов.

Ключевые слова: Кураминский хребет, Шаугаз, Кандыр, геохимические ореолы, эндогенные месторождения, цветные, черные и другие металлы, рудно-формационные типы, полезные ископаемые, структурные факторы.

GEOCHEMICAL HALOS OF THE ELEMENTS COPPER, MOLYBDENUM, GOLD, AND BISMUTH IN THE SHAUGAZ-KONDYR INTERRIVER AREA

Annotation

At present, in global geological exploration practice, numerous scientific studies are being conducted to investigate the geological and genetic characteristics of endogenous deposits, their formation processes, and distribution patterns, as well as to identify exploration criteria and indicators aimed at meeting the demands of industry and the national economy for ferrous, non-ferrous, precious, and other metal raw material resources. These scientific data, in turn, serve as a reliable foundation for the exploration and discovery of new deposits based on the results obtained.

Keywords: Kurama mountain range, Shaugaz, Kondyr, geochemical halos, endogenous deposits, non-ferrous, ferrous and other metals, ore-formation types, minerals, structural factors.

Kirish. Dunyo miqyosida mis, molibden, oltin va boshqa rangli metallar o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra sanoatda ehtiyoj yuqori bo'lgan asosiy metallardan biri ekanligi sababli ularning konlarini qidirib topish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada innovatsion texnologiyalar va foydali qazilmalarni qidirishning zamonaviy usullari orqali mis ma'danining hosil bo'lish sharoitlari va joylashish qonuniyatlarini aniqlash muhim o'rin tutadi. Ushbu tadqiqotlar o'z navbatida sanoat ehtiyojini qoplashi mumkin bo'lgan yangi mis konlarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qiladi. Shunga ko'ra hududda keng tarqalgan tog' jinslaridan olingan namunalarning kimyoviy tahlillar natijalari asosida elementlarning geokimyoviy tarqalish oreollar xaritalari tuzilgan.


Bugungi kunda dunyoning rivojlangan mamlakatlarida foydali qazilmalarning majmuviy konlarini, turli ma'dan-formatsion turlarini aniqlashga yo'naltirilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, tarkibida sanoatbop mis ma'danlarini o'zida qamragan intruziv hosilalarni o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy va yuqori aniqlikka ega tahliliy usullardan foydalanib olib borilgan mineralogik-geokimyoviy tadqiqotlar mazkur jinslardagi asosiy va birga uchrovchi ma'danlashuv istiqbolini ilmiy asoslashga imkoniyat yaratadi.

Qurama tog' tizmasining shimoliy yon bag'irlarini tizimli ravishda ko'plab tadqiqotchilar, shu jumladan: S.F.Mashkovsev, B.N.Nasledov, A.S.Adelung, M.G.Kalabin, A.A.Petrenko, V.K.Dodin, Z.P.Artemov, Yu.S.Shixin, J.N.Kuznetsov, H.M.Abdullayev, I.H.Xamrabayev, N.P.Vasilkovskiy, I.M.Golovanov, V.A.Arapov, T.N.Dolimov, S.T.Badalov, T.Sh.Shoyoqubov, V.I.Rexarskiy, R.A.Musin, K.Urunbaev, I.B.Fyodorov, V.V.Neverov, E.D.Molchanov,

MIS elementi o'rganilayotgan hududimizning shimoliy, janub-janubiy-sharqiy va qisman g'arbiy qismlarda keng tarqalganini hamda u asosan granodiorit-porfir va ularning metasomatik o'zgargan jinslari hamda nordon effuziv jinslar bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan (3-rasm).


O'rganilayotgan maydoni katta qismini mis oreoli egallaydi. Mis oreoli metasomatik o'zgargan, granodioritlarda va ulardagi andizitlar keng tarqalgan joylarda va karbonat tog' jinslarning o'zgarga qisimlarida keng tarqalgan.

VISMUT elementi ish olib borayotgan hududimizning shimoliy hamda janubiy va qisman g'arbiy qismlarda o'lcham jihatidan maydaroq tarqalish oreollarini hosil qiladi. Vismut elementi asosan granodiorit-porfirning metasomatik o'zgargan jinslari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan.



2-rasm. Olmaliq ma'danli rayonining bashoratlash - metallagenik xaritasi, miqyos 1:25000 (N.B.Volfson, E.V.Ganiyeva materiallari asosida 2019). Tuzuvchi: X.X.Xaliyev 2024 y. 1-siyenit-porfir, 2-ma'dan maydoni, 3-ma'danli uzul, 4-yer yorig'i, 5-granodiorit, 6-Mo elementlarining oreollari, 7-maydalangan vulkanik jinslar, 8-metasomatitlar, 9-ohaktoshlar, 10- granodiorit-porfirlar, 11-siyenitlar, 12- siljish, 13- nordon vulkanik jinslar, 14-ma'dan namoyoni.


Vismut oreollari metasomatik o'zgargan tog' jinslarning cheka qismlarida hosil bo'ladi bu esa vismut mineralining vismut telluridlari, vismutinlar kech hosil bo'lganini tasiqlaydi. Vismut oreollarining oltin oriollari bilan solishtirganimizda vismut, mis - oltin oreolini cheka qismida hosil bo'lganini ko'ramiz.



3-rasm. Olmaliq ma'danli rayonining bashoratlash - metallagenik xaritasi, miqyos 1:25000 (N.B.Volfson, E.V. Ganiyeva materiallari asosida 2019). Tuzuvchi: X.X.Xaliyev 2024 y. 1- siyenit-porfir, 2- ma'dan maydoni, 3- ma'danli tugun, 4- yer yorig'i, 5- granodiorit, 6- maydalangan vulkanik jinslar, 7- Cu elementlarining oreollari, 8- metasomatitlar, 9- ohaktoshlar, 10- granodiorit-porfirlar, 11- siyenitlar, 12- siljish, 13- nordon vulkanik jinslar, 14 - ma'dan namoyoni.

OLTIN elementi o'rganilayotgan hududimizning shimoliy va janubiy-sharqiy qismlarda kattaroq o'lchamda birlamchi tarqalish oreollarini hosil qilganini, janub va janubiy-g'arbda esa nisbatan mayda shaklda tarqalish oreollarini hosil qiladi.

Oltin oreollari faqat intinsiv metasomatik (seritsitizatsiya, xloritizatsiya va kvarslanish o'zgarish bo'lgan maydonda keng oreollar hosil qiladi va ular II-III darajali yoriqlar bilan bog'langan. Mineralogik tadqiqotlarda shu zonadan olingan namunalarda ko'pgina miqdorda oltin borligi aniqlandi. Oltin elementi asosan granodiorit-porfir va ularning metasomatik o'zgargan jinslari bilan o'zaro bog'liqligi aniqlangan (4-rasm).



4-rasm. Olmaliq ma'danli rayonining bashoratlash - metallagenik xaritasi, miqyos 1:25000 (N.B.Volfson, E.V.Ganiyeva materiallari asosida 2019). Tuzuvchi: X.X.Xaliyev 2024 y. 1- siyenit-porfir, 2- ma'dan maydoni, 3- ma'danli tugun, 4- yer yorig'i, 5- granodiorit, 6- Au elementlarining oreollari, 7- maydalangan vulkanik jinslar, 8- metasomatitlar, 9- ohaktoshlar, 10-

granodiorit-porfirlar, 11- siyenitlar, 12- siljish, 13- nordon vulkanik jinslar, 14 – ma'dan namoyoni.

Xulosa. Ko'pgina hollarda, birlamchi oreollar ma'dan tanalariga mos ravishda rivojlanadi. Bu holat ma'dan jismlari uchun ham to'g'ri keladi.

Olingan natijalar asosida hududda molibden elementining tarqalish oreollari ishlab chiqildi. Bunga ko'ra molibden ish olib borilgan hududning shimol-shimoliy-g'arbiy hamda janubiy qismlarda ko'proq tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Molibden asosan granodiorit, granodiorit-porfirlar, siyenit va kam hollarda metasomatik o'zgargan tog' jinslari bilan bog'liqligini ko'ramiz.

ADABIYOTLAR

1. Аристов В.В. Методика геохимических поисков твердых полезных ископаемых. - М.: Недра, 1984 г., - 200 стр.
2. Ахунджанов Р., Мамарозиков У.Д., Зенкова С.О., Каримова Ф.Б. Новые аспекты генетической связи оруденения с интрузиями // Сборник тезисов докладов международной научно-технической конференции. – 2014 г., – стр. 42-53.
3. Арапов В.А. «Вулканизм и тектоника Чаткало-Кураминского региона», Ташкент, "Фан", 1983. 256 с.
4. Акбаров Х.А. Прогнозирование оруденения в рудных полях Средней Азии // Современные проблемы металлогении. -Т.: Фан, 2002 г., -С. 78-82.
5. Беус А.А., Григорян С.В. Геохимические методы поисков и разведки месторождений твердых полезных ископаемых. - М., Недра, 1975 г., 280 стр.
6. Голованов И.М. Металлогеническое районирование медного оруденения Узбекистана // Зап. Узбек. отд. ВМО. Вып. 29. Ташкент, 1976 г., стр. 129–137.
7. Григорян С.В., Янишевский Е.М. Эндогенные геохимические ореолы рудных месторождений. – М.: Недра, 1988 г., -161 стр.
8. Razikov O., Xaliyovov X. Литолого-структурные критерии размещения оруденения и геохимических ореолов на участке Шаугаз-Кандырсай (Восточный Узбекистан) // Geologiya va mineral resurslar / Журнал. №2 – Тошкент, 2025-yil, 18-21 бетлар (04.00.00; №2).